



TIBBIYOTNOMA

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI NASHRI

№ 11 2021 YIL 21 DEKABR



YANGI YIL TABRIGI



Qutlug' qadamlar bilan kirib kelayotgan 2022 yil bilan barchangizni chin dildan tabriklayman.

2021 yilda yurtimiz hayotida yaxshi kunlar, ulkan yutuqlar va marralar ko'p bo'ldi. Shu bilan birga koronavirus pandemiyasi barcha uchun sinovli davrga aylandi. Tarix sahifalaridan joy olayotgan 2021 yil akademiyamiz hayotida muhim voqealarga boy bo'lganini alohida ta'kidlash joiz.

Jumladan, o'quv jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarning joriy etilishi biz kutgan natijalarni berdi. Ilmiy tadqiqotlar borasida ham ahamiyatga molik, ijobjiy yutuqlarga erishildi. Quvonlisi yangidan-yangi ilmiy tadqiqotlar va ixtirochilik ishlari respublikamiz jamoatchiligi e'tiborini qozondi. Ma'naviyat va ma'rifat, madaniyat va sport sohasida qilingan ishlar, qo'siga kiritilgan yutuqlar ham o'ziga xos salmoqqa ega. Akademiyamizda faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilar hamda talaba-yoshlarning yutuqlari olib borilayotgan tizimli ishlarning samarasi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev «Odamlar tibbiyotda adolatni sezishi kerak», deya ta'kidlashlari beziz emas. Bu esa malakali kadrlarni tayyorlash Akademianing asosiy vazifasiga aylangan.

Yangi — 2022 yilda akademiyamiz jamoasi katta-katta rejalarни amalga oshirish, bir qator xayrli tadbirdarlari o'tkazishni mo'ljallamoqda.

Qadrli ustozlar, muhtaram professor-o'qituvchilar, aziz talabalar! Sizlarni yana bir bor kirib kelayotgan Yangi yilingiz bilan chin qalbimdan muborakbd etaman. Ilmiy, ijodiy, o'qishdag'i faoliyatningiz va intilishlaringizda muvaffaqiyatlar, oolangizga totuvlik, o'zingizga mustahkam sog'liq, xonadoningizga fayzu baraka tilayman!

Yurtimizda yashayotgan har bir oila, har bir inson murod-maqсадига yetsin! Kirib kelayotgan 2022 yil ona diyorimizga fayzu baraka, yangi yutuq va zafalar olib kelsin!

Yangi yilingiz muborak bo'lsin, muhtaram akademiyamiz jamoasi, qadrli professor-o'qituvchilar va aziz talaba yoshlar!

A.SHADMANOV,
Toshkent tibbiyot akademiyasi
rektori

OLIY TIBBIY TA'LIM PEDAGOGLAR NIGOHIDA

Bugungi kun zamonaviy tibbiy ta'lism, umuman amaliy tibbiyotning bir qator o'z yechimini kutayotgan muammolari borligi bilan ifodalanadi.

Mazkur muammolar uzoq yillar mobaynida yig'ilib keldi va agar ularning oqilona va odilonaga yechimlari topilmasa tibbiy ta'lismning sifati jahon andozalari darajasiga chiqmasdan, aholi salomatligini keskin yaxshilanishiga erishib bo'lmaydi. Bugungi kunda Oliy ta'lism va Sog'liqni saqlash vazirlarligi bu borada bir qator shablon bo'lib qolgan jihatlarni qayta ko'rib, keskin islohotlar o'tkazishi, bu borada faqat mazkur sohaning rahbar xodimlarini emas, balki bevosita talabalarga saboq beruvchi o'qituvchilar, birlamchi tibbiy zvenolarda faoliyat yurituvchi va har kuni bemorlar bilan muloqot qiluvchi shifokorlarning ham fikrlarini e'tiborga olishlari lozim. Muhtaram Prezidentimiz o'zlarining kitoblari, ma'ruzalarida "Tibbiyot xodimlari xalq bilan davlat orasidagi bog'lovchi ko'prikdir" deb beziz ta'kidlamayapti. Zero, bilimli, muomala madaniyati yuksak, orasta, o'zi yaxshi sifat va olijanob xislatlari, sihat-salomatligining darajasi bilan bemorlarga o'rnak bo'la oladigan tibbiyot xodimlari fuqarolarning davlat tizimi, Qomus tamoyillariga bo'lgan ishonchini orttiradi va kelajakka intilishlari uchun turki bo'ladi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev o'zlarining har bir ma'ruzalarida jamiyat taraqqiyoti uchun tanqidiy chiqishlar, maqolalar va ko'rsatuvlardan tayyorlash zarurligini uqtirmoqdalar. Yurtboshimizning 2018 yil 12 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida xalq tabobatini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida ham zamonaviy meditsinamiz xalq tabobatisiz muvaffaqiyat bilan taraqqiy qila olmasligi, shu boisdan ham

(Davomi 4-betda)

Hikmat



*Tabassumga burkansin dunyo,
Qordek oppoq bo'lsin dilingiz.*



Hikmat

8 dekabr - O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun

KONSTITUTSIYA – BAXTIMIZ QOMUSI

**Toshkent tibbiyot akademiyasi akademik litseyida
O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul
qilinganligining 29 yilligi munosabati bilan tantanali
tadbir o'tkazildi.**

Tadbirda akademiya rektorati va fakultet mutasaddilari, kafedra professor-o'qituvchilar hamda iqtidori talabalar ishtirot etdi.

Tantanali tadbir O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi bilan boshlanib, Akademiya rektori, professor A.Shadmanovning tabrigi bilan davom etdi.

Akademiya rektori A.Shadmanov ilmiy-pedagogik jamoani bayram bilan qizg'in muborak etar ekan, konstitutsiyaviy islohotlar va uning mamlakatimiz taraqqiyotidagi o'rni xususida gapirib o'tdi.

Shundan so'ng tadbirda O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi universiteti kafedrasi boshlig'i, filologiya fanlari doktori, professor Sherzod Zulfiqorov "Konstitutsiya – insoniylig tamoyillari asosi" nomli taqdimotni namoyish etdi. Notiq o'z taqdimotida Konstitutsiyamizda qayd etilgan huquqiy demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyatini qurish g'oyasi asosida keng ko'lamli ishlarni

amalga oshirilayotganligi, davlat organlari faoliyatida ochiqlik va oshkorlik tobora kengayib borayotganligi haqida batafsil ma'lumot berdi.

Shuningdek, tadbirda Akademiyada ko'p yillik samarali va halol mehnati hamda o'z xizmat vazifasiga sadoqati uchun professor-o'qituvchi va xodimlar O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining faxriy yorlig'i bilan mukofatlandi.

Tadbir so'ngida bayram munosabati bilan Toshkent tibbiyot akademiyasining Madaniyat uyi "Navo-Shifo" badiiy havaskorlik jamoasi tomonidan tayyorlangan konsert dasturi namoyish etildi.

Bayram tadbiri ishtirokchilarda katta taassurot qoldirdi.

**Alisher SAYDULLAEV,
Toshkent tibbiyot akademiyasi Yoshlar
bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat
bo'limi uslubchisi**



TALABALAR UCHUN YANGI TTJ FOYDALANISHGA TOPSHIRILDI

**Bir yil oldin Toshkent tibbiyot akademiyasi talabalar
uchun turar joylar soni 1550 tani tashkil etardi.**

Yangi o'quv yili boshidan Prezidentimizning OTMlар yoshlari uchun mo'ljallangan qo'shimcha imkoniyatlar doirasidagi taklif va topshirilqlari asosida akademiya talabalarini ikkita qo'shimcha binoga ega bo'ldilar.

Kuni kecha Toshkent tibbiyot akademiyasining o'quv bazasi tarkibi kengaytirilib sobiq Olmazor tibbiyot kolleji binosiga bir necha kafedra ko'chib o'tgan edi. Biroz vaqt o'tib esa mehnat vazirligi balansida turgan 4 qavatlari yotoqxona binosi akademiya talaba yoshlarining ixtiyoriga barcha qulayliklari bilan topshirildi. Yangi yotoqxonaning tantanali ochilish marosimida akademiya rektori A.Shadmanov talabalarni bugungi quvonchli voqeqlik bilan tabriklab, so'ngi yillarda Toshkent tibbiyot akademiyasiga qabul qilingan talabalar soni keskin ortib borayotganligidan minnatdorligini bildirdi. Talabalar sonining bu

tarzda ortib borishi akademiya ma'muriyatini zimmasiga mas'uliyatli vazifalarni yuklayotganligi, ayniqsa Prezidentimizning yoshlar siyosatini amalga oshirish borasidagi topshirilqlariga javoban talabalar uchun munosib shart-sharoitlar yaratish vazifasi kun tartibining muhim yo'nalishiga ko'chganligini ta'kidladi.

O'quv-amaliy jarayonlarga qaratilayotgan e'tibor singari yoshlarni turar joy bilan ta'minlash ishlariga jiddiy kirishilgani ma'lum qilindi. Toshkent tibbiyot akademiyasi talabalarini yana qo'shimcha ravishda mana shunday keng va yorug' talabalar turar joyiga ko'chib o'tdilar. Shu tariqa talabalarning yotoqxona bilan qamrov darajasi 2300 tadan 3400 taga yetkazildi. Yana bir yangi yotoqxona yoshlar ixtiyoriga topshirilishi ularga qaratilayotgan e'tiborning yorqin namunasidir.

G.MIRZAYEVA



Hikmat



*Bo'lsin qordek toza, musaffo
Qadam qo'ygan Yangi yilingiz!*

Hikmat





TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI TALABALARI UCHUN YANGI O'QUV BINOSI

So'nngi yillarda Toshkent tibbiyot akademiyasiga qabul qilingan talabalar soni keskin ortib bormoqda.

Akademiya ma'muriyatini anchadan buyon talabalar uchun munosib, keng va yorug' o'quv binosi masalasi o'yantirib kelardi. Sobiq Olmazor tibbiyot kollejining o'quv binosiga Toshkent tibbiyot akademiyasining

bir necha fakulteti ko'chib o'tdi. Shu munosabat bilan bo'lib o'tgan tadbirda Toshkent tibbiyot akademiyasi talabalariga yaratib berilayotgan yangi imkoniyatlar borasida gapirilib, mavjudlarini zamon talablariga

moslashtirish ustida olib borilayotganligi to'g'risida ma'lumot berildi. O'z o'rniда talaba yoshlar bunday e'tibordan mammunliklarini bildirib, yangi binoda yangi bilimlarni yanada chuqurroq egallashga so'z berdilar.

JON AKADEMIYAM – SHON AKADEMIYAM

Shoshilaman, har kun – sen tomon,
Maqsad katta, go'zal bir zamon
Tib ilmiga asli sen makon,
Faxrim-u-g'ururim, shon Akademiyam,
Bilimlar maskani, jon Akademiyam.

Mashaqqat manzili, dillarga yaqin
Talaba ko'zida olovdek chaqin.
Bajarmoq kerakdir, shogirdlik haqqin,
Mehribon ustozlar bor Akademiyam,
Shavkati-shonimsan jon Akademiyam.

Bedor bo'lib o'tar qancha tunlarim,
Dardga shifo topar tunu-kunlarim.
Bemorning qalbida shifo nurlarim,
Shifokorlar yurti jon Akademiyam,
Har dilni davolar shon Akademiyam.

Ilm izlar doim kechayu-kunduz,
"Ustoz-u shogirdlik" an'ana hanuz,
Bari natijalar bo'lsin a'lo yuz,
Faxrim-u-g'ururim, shon Akademiyam,
Xalqimiz ishonchi – jon Akademiyam!


Marjona QIYOMOVA,
TTA 1-bosqich talabasi

YANGI YIL QAYERDA, QANDAY NISHONLANADI?

ITALIYADA Yangi yil 6 yanvardan boshlanadi. Mamlakatdagi an'analarga ko'ra, bayram kuni o'tgan yildagi barcha eski narsalar tashlab yuboriladi. Aniqrog'i, derazadan uloqtiriladi. Italyanlarning bayram dasturxonida uzum, yasmiq doni va yong'oq bo'ladi. Bu uzoq umr va sog'liq garovi deganidir.



SHVEZYADA yangi yil arafasida antiqa tadbir o'tkaziladi. Unda bir guruh bolalar tomonidan yorug'lik malikasi Lyuchiya tanlanadi. Bayram oqshomida esa ko'chalarga ilning fonuslardan atrof xuddi kunduzidek yop-yorug' bo'ladi.




Yangi yilga bag'ishlangan ilk tabrik xati 1843 yili **ANGLIYADA** nashr etilgan bo'lib, shundan beri bayram an'anasiaga aylangan. Bayram oqshomida kichik yoshdag'i bolalar dasturxon ustida bo'sh likopcha qoldirishadi. Ertalab esa Santa Klaus ularni sovg'alar bilan to'ldirgan bo'ladi. Soat millari o'n ikkiga bong urganida shahar bo'ylab qo'ng'iroqlar jarangi yangraydi.



SHOTLANDIYADA bayram kuni o'ziga xos maxsus taomnoma tuziladi. Ertalabki nonushta uchun so'li yormasidan kulcha yoki quymoq, puding, echki sutidan pishloq, tushlikkai o'rdak go'shtidan sho'va tayyorlanadi. Kechki bayram dasturxoniga esa, albatta, olmali piroq qo'yiladi.

KOLUMBIYADA Yangi yil bayrami masxarabozlar ertak qahramonlari ishtirokida karnaval bilan boshlanadi. Papa Paskual (Qorbobo) shahar bo'ylab sayr qilib, bolalarga qiziqarli hikoyalar so'zlab beradi.



Yangi yil bayram dasturxoniga **fransuzlar** an'anaviy pirog tayyorlashadi. Pishiriq ichiga, albatta, bir dona qizil loviya solinadi. Loviya kimga nasib etsa, u bayram qiroli deb topilib, barcha uning xohish-istiklarini so'zsiz bajaradi.



(Boshi 1-betda)

ildizlari bir necha ming yillarga borib taqalgan xalq tabobati, Ibn Sino, ar Roziy hakim Yusufiy, Tojiddin hakim kabi bobokalonlarimiz meroşlaridan keng foydalanishni uqtirganlar.

Maqsadimiz – shu yurt fuqarosi si-fatida bugungi kun meditsinasi oldida turgan muammolarni teran o'rganish va bu borada 30 yillik shifokorlik, pedagoglik, yozuvchilik tajribalarimizdan kelib chiqqan holda fikr va mulo-hazalarimizni bayon qilishdir. TMAda ta'lif jarayoni, bolalar jarrohligi kursiga kelgan 1-5 kurs talabalarining tibbiy, ilmiy, ma'rifiy, dunyosi, qiziqishlari ko'lamini o'ttiz yillik pedagog sifatida o'rgandik. Chorak asr mobaynida O'zRSSVga fuqarolardan tushgan shikoyat xatlarini o'rganish va tekshirish komissiya-si safida bo'lganligim va yuzlab ixtilofli, masalalar yechimida prokratura, mil-itsiya xodimlari bilan birga qatnashganim sababli bu boradagi muammolar ildizi hali talabalik davriga borib taqaladi deb o'yaymiz. Zero, shikoyatlarning aksariyati shifokor bilimining pastligi, davolashning asorat bergenligidan emas, balki tib xodimining manfaatparastligi, muomala madaniyatining pastligi, tibbiy deontologiya hamda kasb etikasiga rioya qilmasligidan kelib chiqayotganligiga guvohmiz. Amaliyotimda bunday holatlar 45,1 foizni tashkil etgan (82 holatdan 37 tasi). Bularning barchasi oliyghoda tibbiy deontologiya, kasb etikasi yetaricha o'qitilmayotgani, talabalar faqat kompyuterlar, testlar OSKElarga bog'lanib, tirik muloqotdan chetlashib ketganligidan darakdir.

Fiziognomika bugun ilg'or xorij davlatlarining barcha jabhalarida bird-ek muvaffaqiyat bilan qo'llanilmoqda. Yaponiya, Germaniya, Frantsiya kabi davlatlarda maxsus lavozimlarga ishga olishdan avval talabgor psixologik testlardan o'tkazilib, tashqi ko'rinishlari o'rganiladi. Zero, insonning chehrasi – uning ko'zgusi bo'lib, yuzining shakli, qoshlari, burni, og'zi,

qaddi-qomati, sochlari, peshonasi, hatto qadam olishi va ovozini uning ichida olijanoblik, insonparvarlik, halimlikmi yoki manfaatparastlik, xunrezlik, beshafqatlik yashirinib yotibdimi, barchasidan ogoh etadi. Muallif bunga oid yuzlab adabiyotlarni o'qib, o'ttiz yillik shifokorlik, tabiblik davomida minglab bemorlarni o'rganib shunday xulosaga kelgan va keyingi mufassal tanishuvlar birlamchi xulosaning haq ekanligini 80 foizdan ko'proq holda isbotlagan. Abituriyentlar psixologik testlar bilan bir qatorda fiziognomik jihatdan o'rganilishi va shundan keyingina qabulga qo'yilishi lozim. Bu borada eng mukammal adabiyotlarga R.Uatsaytning "Chto govorit litso", Shamsiddin Dunasariyining "Qiyofat ul bashar", Z.Ahmedovaning

baholashda test tizimidan mutlaqo voz kechish va tibbiy deontologiya hamda kasb etikasidan ma'ruzalar hamda amaliy mashg'ulotlar soatlarini ko'paytirish maqsadiga muvofiqliqr.

4. Zamonaliv meditsinaning ak-sariyat jabhalari taraqqiyoti boshi berk ko'chaga kirib qolganligi bois (R. Kromer "Krizisi sovremennoy meditsini") meditsinaga ma'lum 10 mingdan ortiq nozologik birliklar, 20 mingdan ortiq sindromlarning har birida xalq tabobati yutuqlarini qo'llab bitilgan mukammal darsliklar yaratilib, xalq tabobatidan amaliy mashg'ulotlar soatlarini ko'paytirish lozim.

5. Oliygoh ma'muriyati zamona shiddati va sivilizatsiya darajasiga muvofiq ravishda oliv tibbiy ta'limga saboq berish uchun umrini baxshida qilgan, xususiy klinika yoki xorijda ishslash uchun ketib qolmagan fidoyi professor-o'qituvchilarini har yili tug'ilgan kunlari, o'qituvchilar kuni, tibbiyotchilar bayramida loaqal maqtovnomasi yoki faxriy yorliqlar bilan taqdirlash, Sog'liqni saqlash va Oliy ta'lim vazirliklaridan ko'proq miqdorda Ta'lim a'lochisi, Sog'liqni saqlash a'lochisi kabi ko'krak nishonlari, orden va medallar ajratilishi uchun murojaatnomasi bilan chiqishlari lozim. E'tiroflarning bar-chasi professor-o'qituvchilarda motivatsiyani oshirib, sifatlari dars o'tishlari uchun sharoit tug'diradi.

6. Kelajak meditsinasi akademik M.Abdullaxo'jayeva ta'kidlaganlaridek profilaktik meditsina bo'lishi uchun sport meditsinasi, tibbiy psixologiya, sog'gom turmush tarzi, gerontologiya fanlaridan soatlarni ko'paytirish, davlat teleradiokompaniyasidan alohida Salomatlik kanali ochilishiga erishish lozim.

**Alijon FAQIROV,
O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi,
pedagog,
Qutbiddin NIZOMOV,
O'zbekiston Respublikasi
Sog'liqni saqlash a'lochisi,
pedagog**

psixologik testlari, A.Zohidiyning "Suvrat va siyrat" asarlari kiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda oliy tibbiy ta'limgi rivojlantirish uchun quyidagilarni taklif etamiz:

1. Tibbiyot oliygohlariga qabul qilinayotgan talabalarining bilimlarini baholash tizimi keyinchalik shifokor faoliyatida unchalik ham ahamiyatli bo'limgan ximiya, til, biologiya bilan cheklanib qolmasdan, aksariyat xorij davlatlari amaliyotida bo'lgan psixologik testlardan ham foydalanish lozim.

2. Tadqiqotlarimizda aniqlangan poydevor fanlardan normal, topografik anatomiya, normal va patologik fiziologiya fanlaridan katta foiz talabalar qoniqarsiz ballar olgani bois mazkur kafedralarda ta'lim sifati ustidan nazoratni kuchaytirish, gorizontal va vertikal integratsiyani har bir fanda qo'llashga erishish lozim.

3. Bo'lg'usi shifokor faoliyatida muloqotning o'rni va tibbiy deontologiya ahamiyati beqiyos ekanligi e'tiborga olinib, bilim va ko'nikmalarni

OLIY TIBBIY TA'LIM PEDAGOGLAR NIGOHIDA



ILM-FAN FIDOVYLARI

Tibbiy va biologik kimyo kafedrasining faxriy professori – ustozimiz Qosimova Stalina Salihovna 85 yoshda!

Ustozimiz, professor Stalina Qosimovaning hayot va ilm-fanda erishgan yutuqlarini ko'zdan kechirar ekanmiz, uning qanchalik mehnatkash va bilimli inson ekanligiga hayratlanamiz.

Professor S.Qosimova 1936 yilning 27 dekabrida Samarqand shahrida tug'ilgan. 1954 yilda o'rta maktabni bitirib, 1959 yilda «Silikat texnologiya»si mutaxassisligi bo'yicha imtiyozli bitirgan. 1954-1959 yillarda O'rta Osiyo Politexnika institutining kimyo-teknologiya fakulteti talabasi, 1959-1964 Leningrad shahrida «Natriy-stronsiy-silikatli shishalarining fizik-kimyoviy xossalari» mavzusida texnika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyani himoya qildi va O'zbekiston Respublikasi FA Kimyo institutiga ishga qaytdi. 1975 yilda doktorlik dissertatsiyasini sanoatda ishlataladigan lazyer atyermal shishalarini yaratishga bag'ishlangan ish bo'yicha himoya qilib, texnika fanlari doktori ilmiy darajasini oldi.

Ustoz shishalar sintezi sohasi va ularning xossalarini o'rganishda yetuk

mutaxassis hisoblanadi. Ular 450 ilmiy ishlar, shu jumladan 16 ta monografiya, 12 ta SSSR mualliflik guvohnomalarning muallifi. S.Qosimova 2 nafrar fan doktori va 15 nafrar fan nomzodlariga rahbarlik qilgan.

Bundan tashqari, professor bir qator respublika va xalqaro konferensiyalarda o'z ma'ruzalari bilan qatnashgan. Uning izlanishlari natijalari bir qator mamlakatlardagi xalqaro kongresslarda ma'ruzalarida yoritilgan.

1975 yildan 2013 yilga qadar tibbiy va biologik kimyo kafedrasining professori bo'lib ishladi. Bir qator darsliklaridan tibbiyot oliygochlari talabalari shu kungacha tahsil olib kelmoqda. Tinimsiz mehnatlar samarasini berib, 2006 yilda "Do'stlik" ordeni bilan taqdirlandi.

85 yosh – bu hayotda hammaga ham nasib qilavermaydigan mo'tabar yosh, boylikdir! Shu yoshgacha hayotda erishilgan yutuqlar hammasi qimmatli va betakrordir! Ustozimizga shu boyliklar og'ushida yana ko'p yillar qolib va ularni uzoq vaqt davomida yanayam ko'paytirishlarini tilaymiz!



85 yillik hayot cho'qqisi zabit etildi! Bu cho'qqidan ko'p narsalar – o'tkazgan baxtli onlaringiz, tajribangiz, muvaffaqiyatlariningiz, do'stlaringiz yana ham qadrliroq ko'rindi! 90 va 100 yillik yubileyrlarning yanada go'zal cho'qqilarini oldinda. Ularni zabit eting! 85 yillik – bu donishmandlik, hurmat va izzat davri. Doim yaqin odamlaringiz, hamdard va g'amxo'r, sodiq va sevimli o'quvchilarining yoningizda bo'lsin. Salomatlik va quvonch, optimizm va yashash istagi ko'p yillar davomida sizni tark etmasin.

**Xosiyat TADJIYEVA,
Tibbiy va biologik kimyo kafedrasini
dotsenti**

BIZ OITSGA QARSHIMIZ, BIZ SOG'LOM TURMUSH TARAFDORIMIZ

**Toshkent tibbiyot akademiyasi Xotin-qizlar kengashi tashabbusi bilan
"Shifokor" sport kompleksida talaba-qizlari o'rtasida "Biz OITSga qarshimiz, biz sog'лом turmush tarafdorimiz" mavzusida fakultetlararo sport musobaqalari o'tkazildi.**



Tadbir sport majmuasi qishki binosida har bir fakultetning talabalari chizib kelgan "Biz Giyohvandlikka – OITSga qarshimiz, biz sog'лом turmush tarafdorimiz" mavzusidagi rasm-plakatlar namoyishi bilan boshlandi. Rasm plakatlarni baholash uchun tuzilgan hakamlar hay'ati tomonidan eng yaxshi rasm chizgan fakultet deb tibbiy profilaktika fakulteti topildi.

Sport musobaqasi talaba qizlar o'rtasida voleybol, shashka, shaxmat va stol tennis turlari bo'yicha o'tkazildi. Shaxmat musobaqasi qur'a tashlash asosida tanlab olindi va ushbu musobaqada birinchilikni tibbiy-profilaktika fakulteti talabasi Marjona

Rayimova egalladi. Shashka musobaqasida esa birinchilik tibbiy pedagogika fakulteti talabasi Fazilat Muxtidinovaga nasib etdi. Voleybol musobaqasida birinchilikni tibbiy pedagogika fakulteti talaba qizlari qo'lga kiritildilar.

Stol tennis musobaqasi ham qizg'in tus oldi va tur g'olib 1-davolash fakulteti 116-guruh talabasi Nigora Axtamovaga, 2-o'rin esa tibbiy profilaktika fakulteti talabasi Lobar Umarqulovaga nasib etdi. Tadbir yakunida eng yaxshi ishtirok etgan talaba-yoshlar Toshkent shahar OITS markazi xodimlari tomonidan taqdirlanadilar.



XAVFSIZ TUTUNNING XAVFLI OQIBATLARI

"Chekish aqlni o'tmaslashtiradi, u ijodiy ish bilan chiqisha olmaydi".

GYOTE

Bundan deyarli besh asrdan ortiq Xristofor Kolumb va uning hamrohlari dunyoga "tamaki jinni"ni qo'yib yuborganlaridan beri osmonga uchayotgan tamaki tutunining oxiri ko'rinxaydi.

Tamakini hidladilar, chaynadilar, trubka, papiros va sigareta sifatida chekdilar... Hozirgi kunda insonlar asosan sigareta chekishadi, bu esa tamaki iste'mol qilishning eng xavfli turi hisoblanadi. BMT ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda kashandalik oqibatida har yili 5,4 million, har 6 soniyada 1 kishi hayotdan ko'z yumadi. 2030 yilga borib kashandalik har yili 8 million kishining hayotdan bevaqt ko'z yumishiga sabab bo'lishi mutaxassislar tomonidan xavotir bilan aytildi. Dunyoda chekuvchilar soni bo'yicha birinchi o'rinda Xitoy, keyin Hindiston va Indoneziya turadi. Chekish oqibatida kelib chiqadigan yillik iqtisodiy zarar 200 milliard AQSH dollaridan oshib ketishi keyingi yillarda hisoblangan.

Bizning yurtimizda ham bu holat jiddiy oqibati hisoblanadi. Respublika salomatlilik va tibbiy statistika instituti ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda har yili 30 mingga yaqin kishi aynan chekish bilan bog'liq kasalliklari tufayli olamdan o'tadi. Yaqin yillarda bu raqam ikki baravarga ortishi mumkinligi aytildi. Yurtimizdagi jami erkaklarning 23 foizi, ayollarning 1 foizi chekuvchilar ekanligi aniqlangan. Achinarli shundan iboratki, keyingi paytlarda yoshlarning elektron sigaretalar, nikotinli snyuslarga ruju qo'yishi ko'paymoqda. Ayniqsa, tungi paytlarda kafe, restoranlarda elektron sigareta va chilim chekish "urf"ga kirib bormoqda. Elektron sigareta (veyf) ham oddiy tamakidan farq qilmaydi, aksincha undan zararliq hisoblanadi. U nikotinli kartrij, elektron chip, lityli akkumulyator va mittigina diodli yoritgichdan iborat. Kashanda uni chekkanda sigareta hidini ham, zararini ham sezmaydi, undan faqat suv bug'i ko'tariladi, xolos, deb o'laydi. Tadqiqotlarda keltirilishicha, veyp chekuvchilar soni 2011 yilda 7 milliontani tashkil qilgan bo'lsa, 2018 yilga kelib ular soni 35 millionga yetgan. Amerikalik tadqiqotchilarning aniqlashicha, 2019-2020 yillarda AQSHda elektron sigaretalarni chekish oqibatida jami 2 807 nafar kishi kasalxonaga yotqizilgan va o'lim holatlari ham qayd etilgan.

Veyplarda tamaki yo'q, hech narsa yonmaydi, tutamaydi. Elektron sigareta – ingalyator misoli. Suyuqlik qiziydi va bug'lanadi. Bug' uchun glikol, glitserin va propilenglikol javob beradi. Yoqimli hid uchun aromatizatorlar va nikotin javob beradi. Aromatizatorlarning qon-tomir tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Veyplar uchun ishlatiladigan suyuqliklarda fenol, formaldegid, qo'rg'oshin singari toksik moddalar bor. Suyuqliklar ichida eng zaharli bu dolchin, vanil, qaymoq ta'mini beruvchilari hisoblanadi. Elektron sigaret suyuqligi ko'rsatadigan ta'sir bolalar uchun jiddiy xavf tug'diradi. Qurilmalar oqishi va bolalar suyuqlikni yutishi xavfi mayjud. Fenol esa ko'z, teri, shilliq qavatlarni zararlaydi, formaldegid saraton chaqiradi, qo'rg'oshin esa asab va yurak qon-tomir tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, elektron sigaretalarni guruhi bo'lib chekish oqibatida gepatit, stafilokok, sil, gripp va boshqa shu kabi infeksiyalarning yuqish xavfi ko'p marta oshadi. Elektron sigaretalarning yonishi va portlashi natijasida jarohatlanish, jumladan kuyish holatlari qayd etilgan. Elektron sigaretadan foydalanadigan bolalar va o'spirinlarning kattalik davrida chekish ehtimoli kamida ikki baravar yuqoriroq bo'lishi olimlar tomonidan o'rganilgan. Elektron sigaretadan foydalanish yurak-qon tomir va o'pka kasalliklari xavfini oshiradi.

Elektron sigaretalar tarkibidagi nikotin kuchli ko'nikishni keltirib chiqaradi va bolalarning rivojlanayotgan miyasisiga zarar yetkazishi mumkin. Dastlabki, bir-ikkiti sigaret chekilgandan so'ng miyada qon aylanishning qisqa muddatli yaxshilanishi natijasida go'yoki, ish qobiliyatni oshgandek tuyuladi, vaholanki, bu "soxta rag'bat" hisoblanadi. Bu kabi holat ayniqsa, yoshlarga o'zining salbiy oqibatini qoldirayotganligi ko'plab tadqiqotlarda isbotlanmoqda. Jumladan, amerikalik olim Duni Illinois universiteti talabalarning 3567 tasi bilan bo'lgan savol-javoblar natijasida chekuvchi talabalarning 16,7 foizi darslarni yaxshi o'zlashtirishi, 45,2 foizi uncha yaxshi o'qimaydiganlar, 59,1 foizi esa yomon o'qishilarini aniqlagan

bo'lsa, 9 nafar chekuvchi va 9 nafar chekmaydigan talaba bilan o'tkazilgan tajriba esa chekish ta'sirida eslab qolish – 4,42 foizga, sonlarni qo'shish – 5,55 foizga, harflarni o'chirish aniqligi 7,09 foizga kamayganligi kuzatilgan. Bular esa chekish ta'sirida qonning kislorod bilan to'inishining kamayishi natijasida kislorod tanqisligining yuzaga kelishi va bundan esa bosh miya zararlanishi tufayli yuzaga keladi. Miyaga nikotin ta'siri esa kuchli qaramlikka, xotira, bilim olish qobiliyatining pasayishiga va tahlilikali nevrozlariga olib keladi.

Ma'lumotlarga ko'ra, nikotinning bir marta qabul qilgandagi toksik dozasi chekmaydigan kattalarda 4-8 mg.ga teng, bolalar uchun esa, bu doza ichga qabul qilinganda, o'limga olib kelishi isbotlangan. Shu bois, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti elektron sigaretalarni butunlay taqiqlash yoki tamaki mahsulotlariga qollaniladigan qat'iy choralar orqali vaziyatni tartibga solishni taklif etmoqda. Hozircha dunyoning 32 mamlakatida elektron sigaretalarni sotish taqiqlangan.

Sog'liq har bir odamning ulkan boyligi hisoblanadi. Shunday ekan, bu boylikni avaylash, asrash lozim, bunda inson hayoti uchun zararli bo'lgan odatlardan biri – kashandalikka qarshi kurashni eng avvalo oiladan, so'ngra esa bog'cha va maktab yoshidan boshlash kerak, chekmaydigan insonni passiv chekuvchiga aylantirmaslik huquqini e'tirof qilish zarur, bu huquqni esa faqatgina so'z bilan emas, balki, ma'muriy chora-tadbirlar bilan ham muhofaza qilish lozim. Aholi, ayniqsa yoshlar orasida sog'lim turmush tarzini shakllantirish va unga amal qilish ko'nikmasini o'rgatish lozim.

Shu maqsadda yaqinda Toshkent tibbiyot akademiyasida xalqaro miqyosda o'tkaziladigan "Sog'lim turmush tarzi" olimpiadasi buning e'tirofi hisoblanadi.

**Shoira QODIROVA,
2-son fakultet va gospital terapiya
kafedrasini katta o'qituvchisi,
Zulfiya SAPAYEVA,
TTA Urganch filiali ichki kasalliklar
va teri-tanosil kafedrasini assistenti**



Yoshlarning ma'naviy salohiyati ta'lim-tarbiyasiga e'tibor bugungi kunda alohida dastur va rejalar asosida muntazam, izchillik bilan olib borilmoqda.

Jamiyatda har tomonlama yetuk, sog'lom va barkamol avlod tarbiyasi uchun keng qamrovli islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Asr vabosiga aylanib ulgurgan giyohvandlik bugungi kunda dunyo miqyosida millionlab insonlarning umriga zomin bo'layotganligi tashvishli holdir. Zotan, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar inson sog'lig'i va xavfsizligiga jiddiy tahdid soladi, mamlakatdagi yoshlar tarbiyasiga, dunyoqarashiga jamiyatning iqtisodiy va ma'naviy negiziga salbiy ta'sir ko'ssatadi, ko'pincha u yuushgan jinoyatchilik bilan uzbeki bog'liq bo'lishi uning ijtimoiy xavfliligini yanada oshiradi. Ayniqsa, mazkur giyohvandlik vositalaridan jabr ko'ruchilarining aksariyatini yoshlar tashkil etayotganligi yanada achnarli holdir. BMT va boshqa xalqaro miqyosdagi nufuzli tashkilotlar chiqargan bir qator normativ hujjatlarda giyohvand vositalar bilan bog'liq cheklowlarning davlat miqyosida amalga oshirishi e'tirof etilgan va bu talablar O'zbekiston qonunchiligidagi ham o'z aksini topgan. Umuman olganda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha huquqiy islohotlarning bosh maqsadi inson va uning manfaatlarini har tomonlama ta'minlashga qaratilganidadir. Yosh avlodni kelgusidagi jismoniy va ma'naviy shakllanishida ta'lim muassasalari, akademik litseylarda keng ko'lamli tadbirlar yo'lg'a qo'yib kelinmoqda.

Jumladan, Toshkent tibbiyot akademiyasi akademik litseyida Oliy va o'tta maxsus ta'lim vazirligining tegishli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida yoshlar o'ttasida giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va kuchli ta'sir qiluvchi preparatlarning suiste'moli

hamda noqonuniy aylanishi bilan bog'liq holatlarning oldini olish, shuningdek, OITSga qarshi kurash bo'yicha davra suhbat o'tkazildi. Ma'rifiy uchrashuvda Toshkent tibbiyot akademiyasi Sud tibbiyoti va tibbiyot huquqi kafedrasi dotsenti Sh.Beknazarov, kafedra assistenti N.Hamroyeva, Olmazor tumani Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi 5-son IIB boshlig'i podpolkovnik K.Karimov, IIB boshliq o'rinnbosari podpolkovnik

maqsadimiz yosh avlodni yet illatlardan ogoh qilishimiz hamda yuksak ma'naviy, ma'rifiy salohiyat sohiblarini ertangi kunga mas'ul ekanliklarini anglatmog'imiz joiz deya ta'kidladi.

Tadbirda TTA Sud tibbiyoti va tibbiyot huquqi kafedrasi dotsenti Sh.Beknazarov so'zga chiqib bugungi kunda giyohvandlik balosi chegara, o'lchov va qiyos bilmaydigan bir holatga kelganini aytib o'tdi. Uning kasofatiga yer yuzida ko'plab insonlar hayot bilan erta vidolashmoqda, sog'ligidan ajralmoqda. Oilalar buzilib giyohvandlik bilan bog'liq jinoyatlar soni ortib bormoqda.

Xususan yoshlarga oldiniga shunchaki ko'ngilxushlik, oddiy qiziqish, bolalarcha ermak bilan shug'ullanish "giyohdan bir totib qo'yish" keyinchalik unga batamom o'rganish, usiz turaolmaslik, topish uchun har qanday jinoyatdan tap tortmaslik kabi ulkan jinoyatlarga olib bormoqda. Mutaxassislarining fikricha odam giyohvand moddalar asiriga aylangach o'rta hisobda 5 yildan ortiq umr ko'ra olmas ekan. Biror mamlakat aholisining 7 foiz giyohvand moddalar iste'moliga o'tgan bo'lsa o'sha mamlakatning kelajagi halokat yoqasida turishi aniqlangan deya ta'kidlab o'tdi.

IIB xodimlari tomonidan "qora ajal"ning ayanchli oqibatlari hayotiy misollar va film namoyishi orqali batafsil yoritib berildi. Tadbir munozaralarga boy tarzda yakunlandi.

Bugungi kunda olib borilayotgan islohotlar, tizimli amaliy ishlar, Yangi O'zbekiston yoshlarini ertangi kunga nurafshon yo'l va porloq istiqbol sari sobitqadamlikda olg'a borishlariga dasturulamal bo'llib xizmat qiladi.

**Nigora HAKIMOVA,
TTA akademik litseyi Yoshlar bilan
ishlash hamda ma'naviy-ma'rifiy
ishlar bo'yicha direktor o'rinnbosari**

GIYOHVANDLIK – UMR ZAVOLI



G.Inoyatov, Yoshlar masalasi bo'yicha katta inspektor mayor A.Mansurov, Olmazor tumani Jinoyat qidiruv bo'limi narkomaniya bo'yicha katta tezkor vakili Yu.Yusupaliev, Xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektor G.Taymuratova hamda ichki ishlar xodimlari ishtirot etdi.

Tadbirni akademik litsey direktori A.Shermuratov kirish so'zi bilan ochib, jadidchilik harakati asoschisi, pedagog, olim Abdulla Avloniying "Tarbiya yo hayot, yo mamot, yo halokat, yo saodat masalasidir" shunday ekan bugungi kun Yangi O'zbekistonning yoshlari salbiy illatlardan yiroq, har tomonlama ilm-ma'rifat va kitobga oshno bo'lgan yoshlardir. Bugungi barchamizning



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI QUYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E'LON QILADI

(2021 yil dekabr)

No	Kafedra	Lavozim, shtat birligi
1-son davolash fakulteti		
1.	Nevrologiya va tibbiy psixologiya	dotsent - 1,0;
2-son davolash fakulteti		
1.	Bolalar kasalliklari propedevtikasi	assistant - 1,0
Tibbiy profilaktika fakulteti		
1.	Kommunal va mehnat gigiyenasi	dotsent - 1,0
Menejment, tibbiy biologiya, tibbiy biomuhandislik va OMX fakulteti		
1.	O'zbek va xorijiy tillar	Chet tili: o'qituvchi - 1,0
2.	Tibbiy va biologik kimyo	Biologik kimyo: katta o'qituvchi - 1,0;
3.	Gematologiya, transfuziologiya va laboratoriya ishi	assistant - 1,0
4.	Allergologiya, klinik immunologiya va hamshiralik ishi	assistant - 1,0

Hujjatlar tanlov e'lon qilingan kundan boshlab bir oy davomida Toshkent tibbiyot akademiyasining devonxona va arxiv bo'limida qabul qilinadi. Manzil: Olmazor tumani, Farobiy ko'chasi, 2-uy.

"ZAKOVAT" INTELLEKTUAL O'YINLARI BO'YICHA REKTOR KUBOGI TASHKIL ETILDI

Bugungi kunda davlatimizda yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani hech kimga sir emas.

Buning natijasi o'laroq yoshlarda intellektual o'yinlarga bo'lgan qiziqish yuqori darajaga ko'tarildi. Toshkent tibbiyot akademiyasida ham talabalarning talab va istaklarini hisobga olgan holda Akademiya yoshlari ittifoqi boshlang'ich tashkiloti hamda Yoshlar bilan ishlash ma'naviyat va ma'rifat bo'limi bilan hamkorlikda "Zakovat" intellektual o'yinlari bo'yicha

"Rektor kubogi" o'tkazildi. Turnirda Toshkent tibbiyot akademiyasining 180 nafar talabasi 30 ta jamaoa tarkibida g'oliblik uchun kuch sinashishdi. Saralash o'yinlarida reja bo'yicha 10 ta jamaoa finalga yo'llanmani olishi kerak edi, ammo raqobat kuchli va shiddatli ekanligi hisobga olinib 13 ta jamaoa finalga yo'llanmani qo'lga kiritdi. Olmazor tuman yoshlari ittifoqi markazida

o'tkazilgan final o'yinlari haqiqiy "jang"ga aylanib ketdi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Final natijalariga ko'ra magistrlardan ibrat "Tafakkur" jamoasi 15 ball to'plab III-o'rinni qo'lga kiritishdi. II-o'rinni 17 ball to'plagan holda "Forward" jamoasi egallagan bo'lsa, "Everest" jamoasi 18 ball to'plagan holda mutloq g'oliblikni qo'lga kiritishdi.



Toshkent Tibbiyot akademiyasi rektorati va kasaba uyushmasi 1-davolash fakultetining 1-son akusherlik ginekologiya kafedrasini mudiri, tibbiyot fanlari doktori, professor

Farida Ayupova MIRZAYEVNAning

vafoti munosabati bilan marhumaning oila a'zolari va yaqinlariga chuqr ta'ziya izhor etadi.

MUASSIS:
**TOSHKENT
TIBBIYOT
AKADEMIYASI**

MUHARRIR
**TURDIQUL
BOBOMURATOV**

TAHRIR HAYATI:
Q.Nizomov (Bosh muharrir o'rinosari),
O.Hazratov, A.Zohidiy, N.Hakimova,
L.Abduqodirova, M.Hasanova

Gazeta Pentium-IV
kompyuterida sahifalandi va Toshkent Tibbiyot akademiya RISOGRAFida
400 nusxada chop etildi.
Manzilimiz:
Toshkent shahri, Farobiy
ko'chasi, 2-uy
Nashr uchun ma'sul
Q.Nizomov

Gazeta Toshkent Matbuot va axborot boshqarmasida 2007-yil 15-yanvarda 02-0049 raqam bilan ro'yxatga olingan

Mualliflar fikri tahririyat nuqati nazaridan farqlanishi mumkin. Maqolalardagi ma'lumotlar uchun mualliflar javobgardir
Bepul tarqatiladi